



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Transport nazorati**  
**inspeksiyasi boshlig‘i**  
**J. Karimov**  
**2024-yil “21 ” iyun**

**Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasida o‘tkazilgan**  
**yig‘ilish**  
**BAYONI 47**

**Toshkent shahri**

**2024-yil 19-iyun**

**Raislik qildi:**

J.Karimov inspeksiya boshlig‘i

**Qatnashdilar:**

Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi rahbariyati, bosh va yetakchi mutaxassislar, hududiy bo‘limlar boshliqlari, bosh inspektorlar.

**KUN TARTIBI:**

**Transport nazorati inspeksiyasi Temir yo‘l va metropolitenda nazorati**  
**boshqarmasi 2024-yil yanvar-may oylari davomida amalga oshirgan ishlar**  
**sarhisobi haqida**

*(Karimov, Abduraxmanov, Bazarov, Kurbanazarov, Nurxojaev,..... Karimov)*

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig‘i so‘zga chiqib, Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi 2024 yil yanvar-may oylari davomida amalga oshirilgan ishlar hisoboti to‘g‘risida videoselektor qatnashchilarini tanishtirdi, xususan:

2024 yilning 5 oy davomida jami 56 ta tadbirkorlik sub’ektlarini tekshiruv o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, jami 56 ta (2023 yilda 27 ta) tekshirilgan. Mazkur tekshiruvlar jarayonida 4894 ta (2023 yilda 1346 ta) temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ hujjatlar talablari buzilishi, infratuzilma va harakat tarkiblarining nosozligi yoki foydalanish muddati o‘tganligi aniqlangan.

Yuqorida aniqlangan kamchiliklardan aynan harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi 1066 ta (2023 yilda 510 ta) kamchiliklar aniqlangan, jumladan: 19 ta (2023 yilda bo‘lmagan) temir yo‘llarda, strelkali o‘tkazgichlarda tezliklar cheklangan, 251 ta (2023 yilda 58 ta) temir yo‘llari izlari, strelkali o‘tkazgichlar yopilgan, 61 ta (2023 yilda 18 ta) lokomotiv va drezinalar foydalanishdan qoldirilgan, 35 ta (2023 yilda bo‘lmagan) yo‘lovchi vagonlar foydalanishdan qoldirilgan, 132 ta (2023 yilda 34 ta) yuk vagonlari foydalanishdan qoldirilgan, 568 ta boshqa kamchiliklar (2023 yilda 210 ta) (texnik va o‘lchov vositalari, nosoz asbob-uskunalar, bilim pastligi, texnik hujjatlardagi kamchiliklar va boshqa sabablar) aniqlangan.

Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tadbirkorlik sub’ektlariga taqiqlovchi choralarni belgilovchi, bajarilishi majburiy bo‘lgan 114 ta (2023 yilda 25 ta) ko‘rsatmalar berilgan.

5 oy davomida temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi sohasi bo‘yicha

inspeksiya tomonidan berilgan ko'rsatmalardagi jami 1066 ta kamchilikdan 662 tasi bartaraf etilishi ta'minlangan. Qolgan 404 ta qoidabuzarliklar bartaraf etilishi nazoratga olindi.

Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi nazorati bo'yicha bartaraf etilmagan kamchiliklar yuzasidan inspeksiya tomonidan huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risida iqtisodiy sudga 3 ta ("Qarshi MTU" filiali, "Termiz MTU" filiali, Talimarjon IES) davo arizasi kiritilgan.

5 oyida inspeksiya tomonidan temir yo'l transporti xavfsizligini ta'minlash va texnik vositalarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan jami 818 ta profilaktik tadbirlar o'tkazish belgilangan bo'lib, amalda 1180 ta (2023 yilda 705 ta) profilaktika tadbirlari o'tkazilgan (seminar yig'ilishlar, texnik mashg'ulotlar, manzilli uchrashuvlar).

Mazkur profilaktika tadbirlarida jami 11074 nafar (2023 yilda 3079 nafar) temir yo'l tashuvlari bilan bevosita bog'liq ishchi xodimlar ishtirok etgan va ular bilan tushuntirish ishlari olib borilgan.

5 oy davomida 12 ta (2023 yilda 9 ta) temir yo'l transporti ob'ektlari, mahsulotlari va texnologiyalarining belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ularni doimiy yoki vaqtincha foydalanishga qabul qilishda ishtirok etildi.

5 oy davomida 34 ta temir yo'l transportida harakat xavfsizligi talablarini buzish holatlari bo'yicha temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan olib boriladigan xizmat tekshiruvlarida ishtirok etildi va ushbu hodisalar hisobga olindi.

5 oy davomida temir yo'l transporti korxonasi va tashkilotlari tomonidan poezdlar harakati xavfsizligi qoidalarining buzilish holatlarini tahlil qilinib, tahlil natijalari bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklarning takrorlanmasligi uchun temir yo'l transporti korxonalari va tashkilotlariga 154 ta (2023 yilda 71 ta) xatlar yo'naltirilgan.

5 oy davomida Transport vazirligining 2022 yil 10 martdagi 4-sonli buyrug'iga asosan 18 ta (2023 yilda 29 ta) temir yo'l kesishmalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha komissiyalarning ko'rigida ishtirok etildi.

5 oy davomida 14 ta (2023 yilda 5 ta) tashkilotlarni murojaatiga asosan attestatsiya komissiyalarida ishtirok etildi. Ushbu komissiyalarda 185 ta xodimlar (2023 yilda 55 ta) attestatsiyadan o'tkazilgan, shulardan 25 ta xodimlar qayta attestatsiyaga qoldirilgan.

Temir yo'llarda tashishlar xavfsizligini ta'minlash va temir yo'l kesishmalarida poezdlar harakat xavfsizligi buzilish hodisalarini oldini olish mavzusida ommaviy axborot vositalarida jami 56 ta (2023 yilda 22 ta) chiqishlar tashkil etildi.

Jumladan: 7 marotaba televideniya orqali, gazeta va jurnallarda 24 ta maqola, hamda veb-saytda 25 ta maqola chop etildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 maydagi 387-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, yuqori tezlikdagi temir yo'l uchastkalarida harakat xavfsizligini ta'minlash va obodonlashtirish bo'yicha Transport vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq 5 marotaba (3 marotaba

Qarshi, 2 marotaba Buxoro yo‘nalishda) Idoralararo komissiyasi sayyor yig‘ilishlari tashkil qilindi.

5 oyida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga qarashli temir yo‘llarda poezdlar harakat xavfsizligi buzilishi bo‘yicha 26 ta holatga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023 yilning shu davrida 33 ta holatni tashkil etgan.

Sanoat korxonalarida shoxobcha yo‘llarida hisobot davrida 8 ta temir yo‘l tashishlari xavfsizligi buzilishlariga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023 yilning shu davrida 19 ta holatni tashkil etgan.

Avtomashina haydovchilari aybi bilan temir yo‘l kesishmalarida yuz berayotgan harakatdagi tarkibning avtotransport vositasi bilan to‘qnashuvlari poezdlar va avtotransport vositalari harakati xavfsizligiga haqiqiy xavf tug‘dirmoqda.

Temir yo‘l kesishmalarida harakatdagi tarkibning avtomashina bilan to‘qnashuvlari bo‘yicha 19 ta holatga (2023 yilda bu ko‘rsatkich 25 ta holatga) yo‘l qo‘yilgan. To‘qnashuvlar natijasida 2024 yilning 5 oyida 9 nafar kishi halok bo‘lgan, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 1 nafarni tashkil etgan.

Bundan tashqari 2024 yil yanvar-may oylarida amalga oshirilgan ishlar xususida har bitta boshqarmani hududiy bo‘limlariga baho berilmaganligi, har bir poezdlar harakati xavfsizligi ta‘minlash borasida kelgusida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilanmaganligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi.

Tekshirishlarni sonini ko‘paytirish va sifatini oshirish maqsadida tadbirkorlik sub‘ektlari shoxobcha temir yo‘llarida vagonlarni berish va olib chiqish intensivligi, joylashuvi xavfli bo‘lgan (nishabligi yuqori) shoxobcha temir yo‘llar, vagonlarni joyidan siljitish uchun lebedka qurilmalaridan foydalanilayotgan korxonalarni birinchi navbatda tekshirishni dolzarbligini va 2024 yilning oxiriga qadar 2 barobarga ko‘proq tekshiruv tashkil qilish zarurligini ta‘kidlab o‘tdi.

Yo‘l qo‘yilgan poezdlar harakati xavfsizligi buzilishi hodisalari sodir etilganda xizmat tekshiruvlarini Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga asosan sifatli o‘tkazish, ya‘ni sodir etilgan hodisani keltirib chiqargan shart sharoitlar bilan to‘liq tanishib chiqib, yo‘l qo‘yilgan barcha kamchiliklar ko‘rsatilib, belgilangan huquqiy normativ hujjatlar talablarini buzilishi va mazkur talablarni buzilishiga olib kelgan shart sharoitlarni to‘liq o‘rganib, aybdor shaxslarni aniqlab, tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha xulosalar berib va hodisalarni oldini olish, qayta takrorlanmasligi uchun chora-tadbirlar belgilashlarni ham aytib o‘tdi.

Temir yo‘l kesishmalaridagi to‘qnashuvlar xususida alohida to‘xtalib o‘tdi, ya‘ni yo‘l qo‘yilgan to‘qnashuvlar va sodir etilgan poezdlar harakati xavfsizligi buzilishi hodisalari bo‘yicha prezentatsiyalar tayyorlash, profilaktik tadbirlarda har bir temir yo‘l xodimiga tushuntirish ishlarini ko‘rgazmali tashkil qilinishi zarurligini ham ta‘kidladi.

Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig‘ilish

**QAROR QILADI:**

1. Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi tomonidan 2024 yil yanvar-may oylari davomida amalga oshirilgan ishlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. **Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi (A.Abduraxmanov), hududiy bo‘limlari (Nurxojaev, Xojiboev, Bazarov, Kalmuratov, Kurbanazarov)ga:**

- vagonlarni ortib va tushirish intensivligi, joylashuvi xavfli bo‘lgan (nishabligi yuqori), vagonlarni joyidan siljitish uchun lebedka qurilmalaridan foydalanilayotgan shoxobcha temir yo‘llarni qonunni buzish xavfi darajasini tahlil qilib, birinchi navbatda tekshirish rejalashtirilib, ro‘yxati **2024-yil 1-iyul kuniga qadar taqdim etilsin;**

- har bir hududiy bo‘limlar kamida oyida 5 ta tekshiruvni rejalashtirilsin va 2024 yil iyul-dekabr oylari uchun reja ishlab chiqilib, ma‘lumotlari **2024-yil 2-iyul kuniga qadar taqdim etilsin;**

- tekshiruv davrida shoxobcha temir yo‘llar yo‘riqnomalarini qayta o‘rganish, huquqiy me‘yoriy hujjatlar talablariga va joylashuvini e‘tiborga olgan holda ishlab chiqilganligi ko‘rib chiqilsin, bunda temir yo‘llarni nishabligi, tutib qoluvchi boshi berk yo‘llarni mavjudligi, yo‘riqnomada shoxobcha temir yo‘llarida manevrdan so‘ng strelkali o‘tkazgichni tutib qoluvchi boshi berk yo‘lga o‘tkazilishini va o‘tkazilishiga javobgar shaxsni alohida ko‘rsatib o‘tilganligi o‘rganib chiqilsin hamda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etish uchun o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatma (taqdimnoma)lar yuborilib taqdim etilib, hisoboti **2024-yil 25-iyul 01-sentyabr kuniga qadar taqdim etilsin;**

- sodir bo‘lgan hodisalarni Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablari asosida xizmat tekshiruvi sifatli o‘tkazilishi ta‘minlansin. Bunda hodisani keltirib chiqargan sabablari bilan to‘liq tanishib chiqib, yo‘l qo‘yilgan barcha kamchiliklar ko‘rsatilib, belgilangan huquqiy normativ-hujjatlar talablarini buzilishi va mazkur talablarni buzilishi olib kelgan shart sharoitlarni to‘liq o‘rganib, aybdor shaxslarni aniqlab, tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha xulosalar berib va hodisalarni oldini olish, qayta takrorlanmasligi uchun chora-tadbirlar belgilanishi nazoratga olinsin;

- shoxobcha temir yo‘llari yo‘riqnoma hamda shartnomalarida stansiyasi boshlig‘i va uning o‘rinbosariga shoxobcha temir yo‘lining temir yo‘l xo‘jaligi va harakat xavfsizligi holatini tekshirish huquqi berilishi, tormoz boshmoqlaridan to‘g‘ri foydalanishni ta‘minlash va javobgarlik shoxobcha temir yo‘li xodimi zimmasiga yuklatilganligi, bu to‘g‘risida shoxobcha temir yo‘lining direktori buyrug‘i chiqarilib va bir nusxasi stansiyasi boshlig‘iga berilishi ko‘rsatilganligi barcha mintaqaviy temir yo‘l uzellar xodimlariga profilaktik tadbirlarda tushuntirish ishlari olib borilishi **doimiy yo‘lga qo‘yilsin;**

- haftaning chorshanba kunlari “Xavfsizlik kuni” lokomotiv depo xodimlari hamda uzal tarkibidagi korxonalar vakillari bilan umumiy (kustovoy) yig‘ilishlar, profilaktik tadbirlar **doimiy tashkil etilsin;**

- telegramm messenjeri orqali kanal ochilib, mashinist va mashinist

yordamchilari, temir yo‘l xodimlaridan yo‘llardagi kamchiliklar hamda nuqsonlar haqida doimiy ravishda foto, video materiallar ushbu kanalga yuborish yo‘lga qo‘yilsin;

- temir yo‘l kesishmalaridagi sodir etilayotgan hodisalar va harakat xavfsizligi buzilishi hodisalarini tafsilotlarini foto va videolarini ko‘rsatgan holda prezentatsiyalar tayyorlansin, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va shoxobcha temir yo‘llari vakillarini taklif qilgan xolda profilaktik tadbirlar seminar texnik mashg‘ulotlar **doimiy o‘tkazib borilsin.**

**3. Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi** (A.Abduraxmanov), **Toshkent shahar hududiy bo‘limi** (D.Nurxojaev)ga: 2024-yil 28-may kuni Toshkent yuk stansiyasida sodir etilgan yo‘l transport hodisasini to‘liq va sifatli o‘rganib, natijasi bo‘yicha aybdor shaxslar aniqlanib, yig‘majild ma’lumotlari **2024-yil 1-iyul kuniga qadar taqdim etilsin.**

**4. Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi** (A.Abduraxmanov), **hududiy bo‘limlari** (Nurxojaev, Xojiboev, Bazarov, Kalmuratov, Kurbanazarov)ga: temir yo‘l transporti ob‘ektlari belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ularni doimiy yoki vaqtincha foydalanishga qabul qilishda ishtirok etishni hamda qurilish davri mobaynida ham qatnashib, qurilishni loyihaga asosan olib borilishini nazoratini tashkil qilinishi yuzasidan taklifi **2024-yil 1-iyul kuniga qadar berilsin.**

**5. Qashqadaryo hududiy bo‘limi** (O.Kurbanazarov)ga: temir yo‘l kesishmalarida yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida poezdlar va avtotransport vositalarini intensivligi yuqori bo‘lgan qo‘riqlanmaydigan temir yo‘l kesishmalarini “Termiz MTU” rahbariyati bilan birgalikda qo‘riqlanadigan toifaga o‘tkazilishi ta‘minlanishi nazoratga olinsin.

**6. Qashqadaryo hududiy bo‘limi boshlig‘i O.Kurbanazarov** “Termiz MTU” filialida joylashgan intensivligi yuqori bo‘lgan qo‘riqlanmaydigan temir yo‘l kesishmalarida yo‘l transport hodisalarini sodir etilishini oldi olish ishlari tashkillashtirilsin hamda qat‘iy ogohlantirilsin.

**7. Temir yo‘l va metropolitenda nazorati boshqarmasi** (A.Abduraxmanov, R.Axmedov, B.Mirsagatov)ga: taqdim etilayotgan hisobotlarda har bir hudud hamda har bir xodimlar kesimida baho berish yo‘lga qo‘yilsin, statistika bo‘yicha o‘sish yoki pasayish darajasi aniq ko‘rsatib o‘tilsin.

**8. Axborot tahlil va ijro nazorati bo‘limi** (K.Norxodjaev)ga temir yo‘l transportida sodir etilgan harakat xavfsizligi buzilishi hodisalarini yig‘majildlari hujjatlari o‘rganib chiqilib va axboroti **2024-yil 5-iyul kuniga qadar berilsin.**

**9. Ushbu yig‘ilish bayoni qarori ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.**

**Bayonnomani tuzuvchi**



**K.Norxodjaye**